

## TALABANING ILMIY DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH VA INTELLEKTUAL SALOHIYATINI ANIQLASH

*Ilmiy rahbar: Saliyeva Z.Z*

*SamDChTI ingliz tili fakulteti talabasi: Qarshiyeva Z.M*

*zulfizarqarshiyeva80@gmail.com*

*+998 91 709 11 05*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasida o'qiyotgan talabalarning o'zlarini mustaqil nazorat qilish ahamiyati, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish natijasida talabalarni bilimli mutaxassis sisatida yo'naltirish va bilimini rivojlantirish, talabalarni o'qitish usullari, e'tiqodlari, talabalarning dars jarayonlarida qay darajada ishtirok etishi, o'zlarini nazorat qilishlari jamiyatimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi va bundan tashqari, dunyoqarash nima ekanligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** talaba, ilmiy dunyoqarash, mutaxassis, o'qitish usullari, tarbiya, intellektual bilish salohiyati.

Talaba jamiyat taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Talabalar har bir mamlakatda davlatning intellektual bilish darajasini bildirib rivojlanish istiqbollarini va reytingini belgilab beradi. Har bir mamlakat madaniyati yuksalishida ilm fan yutuqlari bilan oliy ta'lim muassasalarining talabalari chuqr nazariy va amaliy bilim ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Sharqning qomusiy olimlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al Farobi, Davoniy, Jomiy asarlarida ta'lim-tarbiya, o'qitish masalalari bayon qilib berilgan. Masalan, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy asarlarida o'qitish usullari masalasiga alohida to'xtalib, talabalarga ta'lim berishda ko'proq qaysi o'qitish usullaridan foydalanish samaraliroq bo'lishi haqida aytib o'tiladi. Jumladan, olim tomonidan quyidagi qoidalar ilgari suriladi:

1. O'qitishda yodlatish emas, balki tushunish mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqarish, yo'liga amal qilish lozimligi,

2.O'qitishda o'quvchining qiziqishi, intilishini hisobga olinishi va Muallim o'z shogirdlariga xushmuomalali bo'lishi,

3. O'qitishda turli usul, metodlarni qo'llash ya'ni qarab chiqish, o'qilmagan mavzularni o'qib olish kerakli joylarini qayta o'qib olish, umuman yana o'qib chiqish va tushunib olish,

4. O'quv qurollarini, kitoblarini e'tibor bilan avaylab, asrab tutish, bu kitoblar insoniyatning boyligi ekanligini tushunish.[3, 1 ]

Beruniy ta'lif tarbiyaga o'quvchilarni diqqatini jalb qilish, ularni toliqtirib qo'ymaslik lozim deb hisoblaydi. Haqiqatan ham biron narsani takrorlayverish talabalar uchun zerikarli bo'ladi nafaqat talabalar, balki boshqa insonlar uchun ham. O'qituvchi talabalarni dars jarayonlariga qiziqtirish orqali ularning faolligini oshira oladi. O'qituvchilarning fikrlarini qadrlagan kerakli bilimni egalagan va shu bilimlarni olishga harakat qilayotgan o'z kasbini sevadigan o'z ustida ishlaydigan har bir talaba o'z kasbi bo'yicha sevimli mutaxassis bo'lib yetishadi va jamiyatda o'z o'rnini egallaydi.

Hozirgi kunda, malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash muhim o'rinni tutadi. Shunga ko'ra, talabalarni chuqr bilim egallashi uchun o'z kasbiga yo'naltirish va kerakli bilimlarni berish lozimdir. Jumladan, mustaqillik tufayli qo'lga kiritilgan o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga sodiq va eng asosiysi milliy g'ururga ega bo'lgan ilmiy dunyoqarashi keng, intellektual salohiyatlari bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash zamonaviy ta'lif tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir.

Talabalarni, ya'ni bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashga texnologik yondashuv qilish va mazkur jarayonlarga axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan keng foydalanish amalga oshirilmoqda va ilmiy dunyoqarashi kengaytirilmoqda.

Dunyoqarash o'zi bu tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalilar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum qolipdan o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda tabiatda munosib o'rinni egallahga chorlaydi.[4.2]. Dunyoqarashi keng bo'lgan e'tiqodi mustahkam bo'lgan talabalarning bilim

salohiyati ham yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, dunyoqarashi keng bo'lgan talabalarning yuksak intellekt qobilyati ham rivojlanadi va ular o'zlarini har qanday vaziyatda nazorat qila oladi.

Ular "aql ong fikr ilm bilim qarash g'oya ta'limot" tizimi orqali rivojlanib takomillashib boradi. Ilmiy dunyoqarash mavzusini o'rganishda tarbiya, ong, ilmiy qarash, ilmiy tafakkur, intellekt, e'tiqod, xotira, g'oya, ta'limot, ilmiy izlanish, ilmiy qadriyatlar, yangilik, ijod, yangi fikr, kuzatish, tajriba xulosa qilish kabi xususiyatlar muhim o'rinn tutadi.

Talaba dars jarayonlarida faol qatnashishi uchun turli xil kurs loyihasi, referat, ma'ruza matni, ilmiy hisobot, maqola, kurs ishi, tezis, faol ta'lim, muloqot nazorat darsi, dasturlashtirilgan ta'lim, ko'rgazmali dars, trening, axborot, ma'lumot kabi ma'lumotlar bazasidan foydalanishadi. Bu foydalanishlar orqali har bir talaba intellekt salohiyatini yuksaltiradi. Talabalar ilmiy dunyoqarashini axborot texnologiyalari asosida shakllantirishning ilg'or usullari, shakllari vositalarini hisobga olgan holda talabalarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga axborotli ta'minotni tayyorlash va bu asosda intellektual salohiyatini yuksaltirishni kompyuterlashtirish dolzarb bo'lib kelmoqda.

"INTELLEKT" nomli ko'makchi kompyuterli tizimi yordamida talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda quyidagi ketma-ketlik e'tiborga olinadi va shu asosda talabalar intellektual salohiyatini aniqlash mezoni yaratiladi hamda talabalarning ilmiy dunyoqarashini yuksalganlik bosqichi ham aniqlanadi:

- 1.Ilmiy dunyoqarashni yuzaga chiqaruvchi asoslar.
- 2.Ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi dastlabki asoslar.
- 3.Ilmiy dunyoqarashni rivojlantiruvchi asoslar.
- 4.Ilmiy dunyoqarashning natijaviy asoslari.[4, 4]

Yuqorida keltirib o'tilgan 4 ta bosqich orqali bo'lajak mutaxassislarning intellektual salohiyati aniqlanadi. Dunyoqarash bu odamlarning yoshiga, ularning mafkurasiga, hayot tajribasiga, intelektual salohiyatiga va ijtimoy munosabatlarga ham chambarchas bog'liq shunga ko'ra takomillashib boraveradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalar jamiyatimizning balki davlatimizning intellektual bilish salohiyatini ko'rsatib, millatimiz kelajagini ifodalab beradi. Biz davlatga kerakli kadrlar yetishtirish uchun talabalarning, nafaqat yoshlarning dunyoqarashini yuksaltirishimiz intellektual bilim darajasini oshirishimiz zarurdir. Talabalarning ilmini ziyoda qilishimiz kerak zeroki, Mahmudxo'ja Behbudiylar ushbu da'vati shundan dalolatdir: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bexabar millat boshqalarga poymol bo'lur" [2]. Yosh avlodimizni ta'lim va tarbiya olgan shaxs sifatida yetuk insonlar qilib voyaga yetkazish va milly kadrlar tayyorlashimiz zarurdir. Bundan tashqari, Islom Abdug'aniyevichning "farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono, va albatta baxtli bo'lishlari shart" degan chuqr ma'noli gaplari orqali ham bilishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1997.
3. [>psixologiya> sharq allomalari asarlarida o'qitish usullari.](https://arxiv.uz)
4. Kamolova Shirintoy Usarovna talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishning axborotli ta'minotidan bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda foydalanish.